

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

II Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 2-SON

2025-YIL



ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-1-7

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 2-son (oktyabr, 2025-yil). – 25 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Aliyev Nodirbek

CHEGARAVIY MASALALARNI YECHISH UCHUN SUN'YI INTELLEKT ELEMENTLARI ASOSIDAGI GIBRID INTEGRATSIYA MODELİ	4-9
---	-----

FILOLOGIYA FANLARI

Mustafayev Ozod

RAQAMLI DAVR ADABIYOTI: O'ZBEKISTONDA INTERAKTIV IJOD VA ONLAYN MUHIT SHAKLLANISHI	10-13
---	-------

Islamova Nozima

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA NEYROLINGVISTIK YONDASHUVLARNING INSON KAPITALI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	14-17
--	-------

Norbekova Gulrux

J. K. ROULINGNING "HARRY POTTER" ASARLARIDAGI AFSUN VA SEHR-JODUGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL TADQIQI	18-21
---	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullayeva Ziroatxon

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARDA REFLEKTIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODIKASINING AMALIY QO'LLANILISHI.....	22-24
---	-------

FILOLOGIYA FANLARI

RAQAMLI DAVR ADABIYOTI: O'ZBEKISTONDA INTERAKTIV IJOD VA ONLAYN MUHIT SHAKLLANISHI

Mustafayev Ozod Nosirovich
tadqiqotchi
Navoiy viloyati, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli davrda adabiyotning yangi ko'rinishi — interaktiv ijod va onlayn adabiy muhitning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. O'zbek adabiyoti namunalari raqamli platformalarda qanday o'rin egallayotgani, o'quvchi va muallif o'rtasidagi yangi muloqot shakllari, shuningdek, internet texnologiyalarining adabiy jarayonga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot davomida zamonaviy raqamli vositalar orqali adabiyotning ommalashuvi va yosh ijodkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tahliliy yondashuv asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv adabiyot, raqamli adabiyot, audiokitoblar, texnologiya va adabiyot, onlayn adabiy platformalar, sun'iy intellekt.

DIGITAL AGE LITERATURE: THE FORMATION OF INTERACTIVE CREATIVITY AND ONLINE ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN

Mustafayev Ozod Nosirovich
researcher
Navoi Region, Uzbekistan

Annotation. This article explores the emergence of a new literary phenomenon in the digital age — the rise of interactive creativity and the formation of an online literary environment in Uzbekistan. It analyzes the presence of Uzbek literature on digital platforms, new modes of communication between authors and readers, and the impact of internet technologies on the literary process. The study highlights how modern digital tools promote literature and open new creative opportunities for young writers.

Key words: interactive literature, digital literature, audiobooks, technology and literature, online literary platforms, artificial intelligence.

KIRISH

So'nggi yillarda axborot texnologiyalari taraqqiyoti insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi. Bunday raqamli o'zgarishlar adabiyot sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, yangi ijodiy shakllar, uslublar va muloqot muhitining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yozuvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi masofani qisqartirdi, asarning ta'sir doirasini kengaytirdi va adabiy jarayonni yanada ochiq, interaktiv tusga keltirdi. O'zbekistonda ham raqamli adabiyot muhitining shakllanishi mustaqillikdan keyingi davrda, xususan, XXI asrning dastlabki o'n yilligidan boshlab sezilarli tus oldi. Elektron nashrlar, onlayn adabiy jurnallar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan adabiy loyihalar o'zbek yozuvchilarining yangi auditoriyaga chiqishiga zamin yaratdi. Shu jarayonda interaktivlik, multimedia shakllari, virtual muloqot hamda o'quvchi fikrining bevosita ijod jarayoniga ta'siri kabi jihatlar adabiyotning yangi bosqichini belgilab berdi.

Raqamli adabiyot sohasida jahon olimlari tomonidan amalga oshirilgan dissertatsiyalar va tadqiqotlar, adabiyotshunoslikning yangi va innovatsion yo'nalishlari bo'lib, ular adabiyot,

texnologiyalar va interaktiv platformalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Albatta, adabiyot va texnologiya o'rtasidagi tarixiy munosabat asrlar davomida shakllanib kelgan dinamik o'zaro ta'sir jarayonidir. Texnologiya doimo adabiyotning yaratilishi, tarqatilishi va iste'mol qilinishiga ta'sir ko'rsatib kelgan. [1; 1-2-6.]

Bugungi kunda sun'iy intellekt sohasi jadal rivojlanib borayotgan ekan, ko'plab kasblar qatori adabiyotning o'rnini ham zamonaviy texnologiyalar egallashi xavotirlari ham tug'ildi. Demakki, texnologiyalarning adabiyotga ta'sirini o'rganish yanada dolzarblasdi. Qolaversa, XXI asr — internet zamonida "raqamli avlod" yetishib chiqdiki, endi ularning adabiy didini shakllantirish va mutolaaga jalb etisgda aynan texnologiyalardan unumli foydalana oladigan ijodkorlar qatlamini shakllantirish zarurati ham paydo bo'ldi.

Adabiyot va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlik hozirgi kunda dunyo bo'ylab e'tibor qaratilayotgan soha hisoblanadi. Raqamli adabiyot, uning yangi shakllari va interaktiv usullari bilan, adabiyotning o'qish, talqin qilish va taqdim etish jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekistonda ham bu soha hozirgi vaqtda rivojlanmoqda. Raqamli adabiyotga oid tadqiqotlar, bir tomondan, global miqyosda adabiyotning yangi shakllarini yaratish va ular orqali o'quvchi bilan aloqani o'zgartirish jarayonlarini kuzatadi, boshqa tomondan esa, milliy adabiyotning yangi ijtimoiy kontekstda qanday rivojlanishini o'rganadi. O'zbek adabiyoti onlayn muhitda, ayniqsa, raqamli kutubxonalar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va boshqa raqamli platformalarda keng tarqalgan. Bugungi kunda O'zbekistonda adabiyotning raqamli muhitda saqlanishi va tarqatilishi bilan bog'liq masalalar alohida ahamiyatga ega. Ko'plab adabiy asarlarning raqamlashtirilishi, eski asarlarning yangi avlodga yetkazilishi va ularni o'quvchilarga onlayn platformalarda taqdim etish imkoniyatlari tobora kengayib borayapti. Raqamli adabiyot o'quvchi bilan interaktiv aloqalarni o'rnatadi, bu esa adabiyotning o'qish jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. O'quvchi nafaqat pasiv ravishda matnni o'qib, talqin qilishi, balki uning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili: "Raqamli adabiyot" tushunchasi asosan 1990-yillardan keyin ommalasha boshladi. Internet va kompyuter texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanishi, matn va tasvirlarning raqamli shakllarda birlashtirilishi, audio va video elementlarining adabiyotga kiritilishi bilan birga bu sohaning ilmiy va amaliy yondoshuvlari tobora ko'paydi. Raqamli adabiyot tushunchasi o'zining tarixiy rivojlanishida aniq bir muallifga yoki olimga bog'liq bo'lmagan holda, 1990-yillarning boshlaridan raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan adabiyot shakllarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Bir qator amerikalik (AQSH) pioner yozuvchilar va olimlar ushbu sohada birinchi tadqiqotlar va yangi adabiyot shakllarini yaratishda muhim rol o'ynaganlar. Misol uchun, Maykl Joysning "Peshin chog'i — bir hikoya" ("Afternoon, a story" (1990) [2;] nomli interaktiv adabiy asari gipertekst (hypertext) matn bo'lib, u boshqa matn bo'laklariga bog'langan havolalarni (linklarni) o'z ichiga oladi. Interaktiv gipertekst hikoya, ya'ni o'quvchi har safar turli havolalar orqali yangi voqealar rivoji bilan tanishib boradi. O'zbek adabiyotida hali bunday asarlar yaratilmagan bo'lsada, keyingi yillarda milliy adabiyotimiz vakillarining internet tarmog'idagi faolligi ularning o'z o'quvchilari bilan interaktiv munosabatlarini ta'minlab kelayapti. Bu uyg'un jarayon esa, albatta yozuvchining yangi asarlar yaratishi, mavzular belgilashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va turtki beradi.

Asosiy qism: "Raqamli adabiyot" tushunchasi bugungi kunda milliy adabiyotshunosligimizda va tilshunosligimizda ham ba'zan qo'llanilayotganini uchratish mumkin. Xususan, "Til va adabiyot" jurnalining 2025-yil, 6-sonida e'lon qilingan "Til va

madaniyatning adabiyotga ta'siri: zamonaviy yo'nalishlar va muammolar" sarlavhali maqolada quyidagicha fikrlar uchraydi: "Mavjud zamonaviy ommaviy madaniyat va texnologiyalar adabiyotning lingvokulturologik yo'nalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual va raqamli adabiyot rivojlanib, til va madaniyatni ifodalash shakllari o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, internet orqali madaniyatlararo muloqot kengayib, turli tillar va madaniyatlar orasidagi chegaralar tobora yo'qolib bormoqda" [3;]

O'zbekistonda raqamli adabiyotning shakllanishi jarayonida "Mutolaa" loyihasi singari tashabbuslar, shuningdek, Xurshid Davron tomonidan yaratilgan "kh-davron.uz" portal [4;] va unga o'xshash onlayn platformalar muhim rol o'ynamoqda. Bu resurslar orqali adabiy kontentning raqamli formatlarda ommaga taqdim etilishi, bir tomondan, adabiyotning targ'iboti va ta'siri kengayishini ta'minlasa, boshqa tomondan esa yangi, interaktiv o'quvchi tajribasiga zamin yaratmoqda. Mazkur jarayonlar O'zbekistonda raqamli adabiyot muhitining shakllanishi uchun konseptual asos bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda, kitobxonlar orasida audiokitoblardan foydalanish madaniyati keng ommalashayapti. Xususan, "Mutolaa" loyhasining "Youtube" tarmog'idagi sahifasi bugungi kunda 17,5 mingdan ortiq obunachiga ega. Platformaga joylashtirib borilayotgan asarlar o'rtacha 5-10 ming atrofida tinglanmoqda. O'zbekiston xalq artisti Muhammadali Abduqunduzov mutolaasida atoqli o'zbek va tojik yozuvchisi Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" (1922) qissasi esa 67 ming martadan ortiq tinglangan. Yana bir "Audiokitoblaruz" sahifasida e'lon qilinayotgan audioasarlarni ham 10 mingdan 500 ming marotaba qadar tinglanayotgani diqqatni tortadi. Audiokitoblarni kundalik vazifalarni bajarish bilan uyg'unlikda tinglash mumkinligi, yo'lda yurayotganda, sport bilan shug'ullanganda yoki uy ishlarini qilayotganda tinglash, qolaversa ovoz, intonatsiya hamda musiqiy fon asarni ta'sirchan va hayotiy ifoda etish imkoniyatlari badiiy adabiyotning jamiyatga singishida yangi to'lqinni paydo qildi.

Endilikda, sun'iy intellekt asardagi voqealar ketma-ketligini badiiy generatsiya qilish, ya'ni jonlantirish imkonini ham bermoqda. Demak, kelgusida badiiy asarlarni yanada ta'sirliroq shaklda auditoriyaga yetkazish mumkin bo'ladi. Buning uchun esa aynan, ijtimoiy tarmoqlarni chuqur o'zlashtirib, adiblar o'z onlayn sahifalari orqali ijodiy namunalarini va adabiyot hamda ijtimoiy hayot haqidagi xulasoalarini jamoatchilikka taqdim etib kelayotganlaridek, sun'iy intellekt sohasini ham ma'lum darajada egallagan adabiyot vakillari yetishib chiqishi mumkin. Yozuvchilar, nafaqat badiiy ijod bilan, balki texnologik yondoshuvlarni o'z asarlariga kiritish orqali esa o'z auditoriyalarini kengaytirish imkonihga ega bo'lishadi.

XULOSA

Zamonaviy texnologiyalarning, xususan, raqamli platformalar va sun'iy intellektning adabiy jarayonga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Raqamli adabiyot o'zbek adabiy muhitida hali nisbatan yangi bo'lsa-da, uning shakllanishi milliy adabiyotning evolyutsiyasi uchun muhim bosqichdir. Ushbu o'zgarishlar yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi an'anaviy chegara va rol taqsimotlarini yangicha shakllantirayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Albatta, har qanday texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt ham yangi turdagi adabiyot yaratishda muvaffaqiyatli yordamchi vosita bo'lishi mumkin, ammo u to'liq ravishda yozuvchilarning o'rnini egallay olmaydi. Yozuvchi shaxs o'zining hissiyotlari, tajribalari va ijodiy tafakkuri orqali chuqur ma'no-mazmun kasb etuvchi asarlar yaratadi. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar esa insoniy ijod chi'qqisi — estetik qiymatini to'liq aks ettira olmaydi. Shu bois yozuvchilarning

jamiyatdagi ta'siri pasaymaydi, aksincha, ular texnologiyalarni o'z asarlariga qo'shish orqali yangi uslublar va imkoniyatlar yaratishda davom etadilar.

Yozuvchilar endilikda nafaqat badiiy matn yaratuvchi, balki kontent yaratuvchi, texnologik vositalarni o'z ijodida faol qo'llovchi zamonaviy ijodkorlar sifatida shakllanmoqda. Sun'iy intellekt bu jarayonda yordamchi vosita sifatida xizmat qilayapti, ammo inson ijodining ruhiy-psixologik daqiq nuqtalarini tahlil qilish — qila olish, faqatgina badiiy adabiyotning muhim qadriyati bo'lib qolaveradi. Kelgusida o'zbek adabiyoti sun'iy intellekt, virtual reallik (VR texnologiyalar) va raqamli hikoyachilik asosida yangi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa nafaqat texnologik, balki madaniy, ijtimoiy va estetik jarayonlar bilan bog'liq muhim yangi yo'nalishlarni ochib beradi.

Raqamli adabiyot — bu faqat elektron formatdagi matn emas, balki zamonaviy o'quvchi bilan jonli muloqotda bo'ladigan, harakatlanuvchi va o'zgaruvchan adabiy muhitdir. Shu bois, O'zbekistonda raqamli adabiyotning rivojlanishi — milliy so'z san'atining yangi bosqichi, adabiy merosni zamonaviy ruhda davom ettirish yo'lidagi tabiiy qadamlardan biridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Manpreet Kaur, "Digital Narratives: Exploring Literature in the Age of Technology", American Research Journal of Humanities and Social Sciences, Vol 10, no. 1, 2024, pp. 1-2.
2. Xidirov X. Aliyeva N. Maqola. Til va madaniyatning adabiyotga ta'siri: zamonaviy yo'nalishlar va muammolar. Til va adabiyot jurnali. 2025-yil-6-son.
3. "kh-davron.uz" portal
4. <https://www.youtube.com/watch?v=Xyy3EYqNIB8>

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, oktyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 2-son (oktyabr, 2025-yil). – 25 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 13-oktyabr

ISBN-978-9910-8337-1-7

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.